


## 14-ma`ruza. Aktiv o`tkazuvchanlik, induktiv va sig`im elementlari parallel ulagan zanjirlarda tok va kuchlanishlar

Reja:

1. Parallel ulagan elektr zanjirlarining turg'un holati.
2. Aktiv, reaktiv va to'la o`tkazuvchanlik.
3. Toklar va o`tkazuvchanliklar uchburchaklari.

### 1. Parallel ulagan elektr zanjirlarining turg'un holati.

Ushbu holatda 3 ta parallel ulagan uchastkalar ( $g$ ,  $C$ ,  $L$ ) dan iborat tarkib topgan elektr zanjirini ko'rib chiqamiz. Bunda, tarmoqning  $g$  qismi faqat o`tkazuvchanlikka ega,  $L$  –qismi faqat induktivlikka ega va  $C$  qismi faqat sig`imga ega deb faraz qilamiz (14.1 –rasm).



**14.1-rasm.**

Kirxgofning birinchi qonuniga asosan:

$$i = i_g + i_c + i_L \quad (14.1)$$

Alovida shoxobchadagi toklarni ularga ta'sir qiluvchi kuchlanishlar orqali ifodalash mumkin. Shunday qilib birinchi shoxobcha uchun

$$i_g = g \cdot U \quad (14.2)$$

Bu yerda  $g$  –birinchi shoxobchaning o`tkazuvchanligi ikkinchi shoxobcha uchun

$$i_c = \frac{dq}{dt} = \frac{dCU}{dt} = C \cdot \frac{dU}{dt} \quad (14.3)$$

Uchinchi shoxobcha uchun

$$i_L = \psi_L / L \quad (14.4)$$

bunda  $u = d\psi_L / dt$ ;  $d\psi_L = u \cdot dt$

Oxirgi ifodani integrallab quyidagi ko'rinishga keltiramiz:

$$\psi_L = \int_0^t u dt + \psi_L(0)$$

u holda

$$i_L = \frac{1}{L} \int_0^t u dt + i_L(0) i \quad (14.5)$$

(14.5) formulada:

$$i_L(o) = 1/L \cdot \psi_L(o)$$

Keltirilgan ifodalardan so‘ng ko‘rib chiqilayotgan zanjirning differensial tenglamasi quyidagicha ko‘rinishga ega bo‘ladi:

$$gu + C \cdot du/dt + 1/L \int_0^t u dt + i_L(o) = i \quad (14.6)$$

Sinusoidal zanjir uchun

$$\begin{aligned} & gu_m \cdot \sin \omega t + \omega C I_m \cdot \cos \omega t - \frac{1}{\omega L \cdot u_m \cdot \cos \omega t} + \\ & + \frac{1}{\omega L \cdot u_m + i_L(o)} = I_m \sin(\omega t - \varphi) \end{aligned} \quad (14.7)$$

(14.7) tenglamaning chap qismidagi oxirgi 2 ta qo‘siluvchidan boshqa doimiy qo‘siluvchilari bo‘lmaganligi sababli quyidagiga ega bo‘lamiz:

$$1/\omega L \cdot U_m + i_L(o) = 0 \quad (14.8)$$

(14.7) zanjir tenglamasi vaqtning istalgan t qiyamatida ham o‘rnlidir.  $\omega t = \pi/2$  va  $\omega t = 0$  deb qabul qilib quyidagilarni topamiz:

$$gU_m = I_m \cos \varphi \quad (14.9)$$

$$(1/\omega L - \omega c)U_m = I_m \sin \varphi \quad (14.10)$$

(14.9) va (14.10) tengliklarni kvadrati ko‘tarib va qo‘sib quyidagi ifodani hosil qilamiz:

$$I_m = U_m \cdot \sqrt{g^2 - \left( \frac{1}{\omega L} - \omega c \right)^2} \quad (14.11)$$

(3.5.11) ifodani  $\sqrt{2}$  bo‘lish orqali ta’sir qilayotgan tok va kuchlanish o‘rtasidagi bog‘lioni aniqlaymiz.

$$I = U \cdot \sqrt{g^2 - \left( \frac{1}{\omega L} - \omega c \right)^2} = U \cdot V \quad (14.12)$$

(14.10) ni (14.9) ga bo‘lib quyidagini hosil qilamiz:

$$\operatorname{tg} \varphi = \left( \frac{1}{\omega L} - \frac{\omega c}{g} \right) \quad (14.13)$$

## 2. Aktiv, reaktiv va to‘la o‘tkazuvchanlik.

g o‘tkazuvchanlik zanjirning aktiv o‘tkazuvchanligi ( $g = 1/r$ ) deb ataladi. ( $\frac{1}{\omega L} - \omega c$ ) kattalik esa zanjirning reaktiv o‘tkazuvchanligi deb ataladi va V bilan belgilanadi. Reaktiv o‘tkazuvchanlikning  $1/\omega L$  tashkil etuvchisi induktiv

o'tkazuvchanlik deb ataladi va  $b_L$  bilan belgilanadi.  $\omega S$  tashkil etuvchisi esa sig'imiy o'tkazuvchanlik deb atalib  $b_S$  orqali belgilanadi.


U holda:

$$b = 1/\omega L - \omega S = b_L - b_S$$

quyidagi:

$$Y = \frac{I}{U} = \sqrt{g^2 + \left(\frac{1}{\omega L - \omega c}\right)^2} = \sqrt{g^2 + b^2} \quad (14.14)$$

Kattalik zanjirning to'la o'tkazuvchanligi deb ataladi.



**14.2-rasm.**

14.2-rasmda ko'rib chiqilayotgan zanjirning  $1/\omega L > \omega S$  holdagi vektor diagrammasi keltirilgan.

Sxemada birinchi qismdagi tok faza bo'yicha kuchlanish bilan mos tushadi. Kondensatordagi tok faza bo'yicha kuchlanishdan,  $\pi/2$  burchakka oldinda, cho'lg'amda esa tok kuchlanishdan faza bo'yicha  $\pi/2$  burchakka orqada koladi.

### 3. Toklar va o'tkazuvchanliklar uchburchaklari.

#### 3.1. O'tkazuvchanlikning fizik mohiyati.

Reaktiv o'tkazuvchanlik  $b$  induktiv  $b_L$  va sig'imiy  $b_S$  o'tkazuvchanliklarning ayirmasi ko'rinishida hosil bo'lishining sababi kondensator va cho'lg'amdag'i toklarning bir biriga nisbatan  $\pi$  burchakka siljiganligidir. Vaqtning istalgan momentida (onida) ikkinchi va uchinchi shoxobchalar umumiyligida qismalariga nisbatan qarama -qarshi tomonga yo'nalgan. (oldingi mavzudagi 1-rasmga qarang). Ushbu toklar birinchi shoxobchadagi tokka nisbatan  $\pi/2$  burchakka siljigan, shuning oqibatida to'liq o'tkazuvchanlik  $g$  va  $b$  larning oddiy arifmetik yig'indisi kabigina hisoblanmasdan, balki quyidagi ifoda bilan hisoblanadi:

$$U = \sqrt{g^2 + b^2} \quad (14.15)$$

$b_L = b_c$  bo'lganida zanjirda rezonans sodir bo'ladi va i tok birinchi shoxobchadagi ig tokka teng bo'ladi.  $\frac{1}{\omega L} > \omega C$  bo'lganida cho'lg'amdan o'tayotgan tok kondensator tokidan katta bo'ladi va umumiyligida i tok faza bo'yicha kuchlanishdan  $\varphi$  burchakka orqada qoladi, bu holda  $0 < \varphi \leq \pi/2$ .  $\omega S > 1/\omega L$  bo'lganida kondensator toki cho'lg'amdan o'tayotgan tokdan katta bo'ladi va umumiyligida i tok faza bo'yicha kuchlanishdan oldinda bo'ladi, bu holda  $-\frac{\pi}{2} \leq \varphi < 0$ .

Elektr o'tkazuvchanlik elektr qarshilikka teskari kattalikdir:

$$G = \frac{1}{R} = \frac{I}{U} \quad (14.16)$$

U quyidagicha o‘lchovga ega:

$$d_{im} G = L^{-2} M^{-1} T^3 I^2 \quad (14.17)$$

O‘tkazuvchanlik birligiga simens (sm) deb nom qo‘yilgan. Ma’lumki, oldinroq, hatto M0 deb ham atalgan («Om» - qarshilik birligining teskarisi), ammo bunday nomlanish rasmiy qabul qilinmadi.

(14.17) formuladagi  $d_{im}$  yozuvi deminsion –o‘lcham, o‘lchamlilik, o‘lchash ma’nolarini bildiradi. L–uzunlik o‘lchami; M–massa o‘lchami; T–vaqt o‘lchami va I–tok kuchi o‘lchami.


Amaliyotda, shuningdek solishtirma elektr o‘tkazuvchanlik kattaligidan ham foydalaniлади. Uning belgilanishi  $\gamma$ : (zaxira belgilanishi –  $\sigma$ ) Ushbu kattalik quyidagi kattalik ifoda orqali aniqlanadi:  $\gamma = 1 / \rho = \frac{\sigma \cdot l}{S}$

(14.18)

va simens metrlarda ifodalananadi.

### 3.2. Toklar va o‘tkazuvchanliklar uchburchaklari.

14.3-rasmda toklar va o‘tkazuvchanlik-lar uchburchaklari keltirilgan. Bu yerdan ko‘rinib turibdiki,  $\varphi$  burchak-ning kamayishi bilan to‘liq tokning aktiv tashkil etuvchisi ortadi va aksincha,  $\varphi$  ortganda esa tokning reaktiv tashkil etuvchisiortadi.



**14.3-rasm.**


O‘zgaruvchan tokli murakkab zanjirning ekvivalent parametrlarini yozishda (umuman olganda, ikki qutbli sifatida qarash mumkin bo‘lgan) quyidagilarga ega bo‘lamiz:

$$Y = \frac{I}{U}; \quad g = \frac{P}{U^2}; \quad b_3 = \pm \sqrt{y^2 - g^2} \quad (14.19)$$

Butun zanjirni umumiyl holda ikki qutblik sifatida ko‘rib chiqsa turib va uning ichki tuzilishi bilan qiziqmagan holda, uni ba’zi ekvivalent parametrlar yordamida tasviflash mumkin.

14.4-a rasmda ikki qutbli zanjir to‘g‘ri to‘rtburchak shaklida kursatilgan

14.4–b rasmida esa  $\varphi > 0$  va  $\varphi < 0$  bo‘lganidagi xususiy holatlar kursatilgan.



14.4-rasm.

Ekvivalent qarshiliklar va o‘tkazuvchanliklar orasidagi bog‘liqliknini keltiramiz.


$$Y = \frac{1}{Z} \quad g = \frac{r}{Z^2} = \frac{r}{r^2 + x^2}; \quad b = \frac{x}{Z^2} = \frac{x}{r^2 + x^2} \quad (14.20)$$

$$Z = \frac{1}{Y} \quad r = \frac{g}{y^2} = \frac{g}{g^2 + b^2}; \quad x = \frac{b}{y^2} = \frac{b}{g^2 + b^2} \quad (14.21)$$

Quyidagi 14.5–rasmda  $\varphi > 0$  va  $\varphi < 0$  bo‘lgan hollarda tok va kuchlanish vektorlarining o‘zaro joylashish vektor diagrammalari keltirilgan:

14.5–a va 14.5–b rasmlarda kuchlanishning tashkil etuvchilarini keltirilgan:

$$U \cdot \cos\varphi = U \cdot r/z = I \cdot r \text{ va } U \cdot \sin\varphi = U \cdot x/z = I \cdot x \quad (14.22)$$



14.5-rasm.

Ushbu tashkil etuvchilarni ba’zan ulangan kuchlanishning aktiv va reaktiv tashkil etuvchilarini deb ham ataladi, ular va U vektori hosil qilgan to‘g‘ri burchakli uchburchakni esa kuchlanish uchburchagini deb ataladi. Mazkur uchburchakning hamma tomonlarini I ga bo‘lib, qarshiliklar uchburchagini hosil qilamiz.

Huddi shuningdek 14.5–v va 14.5–g rasmlardan:

$$I \cdot \cos\varphi = I \cdot g/y = U_g \text{ va } I \cdot \sin\varphi = I \cdot b/y = U_b \quad (14.23)$$

Ushbu kattaliklarni ba'zida tokning aktiv va reaktiv tashkil etuvchilari ham deb ataladi, ular va tok I vektori hosil qilgan to'g'ri burchakli uchburchakni esa tok uchburchaki deb ataladi.

Keltirilgan uchburchakning hamma tomonlarini U kuchlanishga bo'lib, o'tkazuvchanliklar uchburchagini hosil qilamiz. Ushbu uchburchakning katetlari bo'lib ekvivalent aktiv va reaktiv o'tkazuvchanliklar, gipotenuzasi esa ekvivalent to'liq o'tkazuvchanlik hisoblanadi.

### 3.3. O'tkazuvchanlik qatnashgan amaliy hisoblarni bajarish.

Elementlari parallel ulangan berilgan zanjir uchun toklarning effektiv (samarali) qiymatlarini o'tkazuvchanliklar orqali hisoblashni qarab chiqaylik (4-rasm). Faraz qilaylik zanjirga  $U=173$  sin  $\omega$  kuchlanish ulangan bo'lsin, bu yerda  $\omega=314$  Vat parallel uchastkalarda mos holda:  $g=0.06$  sm;  $L = 0.02$  Gn hamda  $S = 145$  m<sup>2</sup> bo'lsin. Joriy (amaldagi)  $I_g$ ,  $I_L$ ,  $I_C$  larni hamda butun zanjirdagi tokning oniy qiymatini aniqlash talab qilinayotgan bo'lsin.

Yechim:  $b_L$  va  $b_C$  larni hisoblab aniqlaymiz:

$$b_C = \omega C = 314 \cdot 145 \cdot 10^{-6} = 0.045 \text{ cm}$$

$$b_L = 1/\omega L = 1/314 \cdot 0.02 = 0.16 \text{ cm}$$

Zanjir qismalaridagi joriy (amaldagi) kuchlanish:


$$U = \frac{U_m}{\sqrt{2}} = \frac{173}{\sqrt{2}} = 122,7 \text{ B}$$

Shoxobchalardagi joriy (amaldagi) toklar:

$$I_g = g \cdot U = 0.06 \cdot 122.7 = 7.36 \text{ A};$$

$$I_L = b_L \cdot U = 0.16 \cdot 122.7 = 19.63 \text{ A};$$

$$I_C = b_C \cdot U = 0.045 \cdot 122.7 = 5.52 \text{ A}.$$



Zanjirning shoxobchalanmagan qismidagi umumiyl tok quyidagiga teng bo'ladi:

$$I = \sqrt{I_g^2 + (I_L - I_C)^2} = \sqrt{7,36^2 + (19,63 - 5,552)^2} = \sqrt{54,2 + 199,10} = \sqrt{253,3} = 15,91 \text{ A}$$

Tokning oniy qiymatini aniqlash uchun  $\varphi$  burchakni (tok va kuchlanishlar orasidagi fazal siljishini) aniqlash lozim:

$$\varphi = \arctg \frac{b}{g} = \arctg \frac{0.16 - 0.045}{0.06} = \arctg \frac{0.115}{0.06} = \arctg 1.92 \approx 62^0 30'$$

Butun zanjirga ta'minlovchi manbadan oqib kelayotgan tokning oniy qiymati quyidagiga teng bo'ladi:

$$i = I_m \cdot \sin(314t - \varphi) = \sqrt{2} \cdot 15,91 \cdot \sin(314t - 62^\circ 30') = \\ 1,41 \cdot 15,91 \cdot \sin(314t - 62^\circ 30'') = 22,43 \cdot \sin(314t - 62^\circ 30')$$

Nazorat savollari:

1. Zanjir parallel bog‘langan qismlari (shoxobchalari) dagi to‘liq tok miqdorini aniqlash ifodasini kursating.
2.  $\omega t = \pi/2$  va  $\omega t = 0$  bo‘lgan hollarda zanjir tenglamasini yozing.
3. To‘la o‘tkazuvchanlik deb nimaga aytiladi?